



REFERAT

JANGOVAR HARAKATLARDA QO'LLANILGAN HARBIY XIYLALAR

Tuzuvchi: Mamamurodov Q.M

Bo'lib o'tgan jangovar harakatlar tajribasi, harbiy kuchlar, jangarilar tomonidan qo'llanilgan harbiy xiylalar, to'plangan jang tajribalarini o'rganish jangda g'alaba qozonishda muxim omil bo'lib hisoblanadi.

05.04.2017

JANGDA
G'ALABANIN
G YURAGI-
HARBIY
HIYLA

Kirish so'zi

Hozirgi taxlikali zamonda bo'lib o'tayotgan mahalliy majorolar, mintaqadagi nobarqoror harbiy siyosiy vaziyatni chuqur taxlil qilar ekanmiz, dushman ustidan g'alaba qozonish uchun komandirlaridan jasorat, mardlik, qat'iyatlilik, jangovar tashabbus, nostandart vaziyatlarda nostandart qarorlar qabul qilishda harbiy xiyalardan oqilona, to'g'ri va o'z vaqtida tezkor foydalanishni taqozo etadi.

Taktik harakatlar dinamikasi sodda taktik usullardan tortib, shakllari va ko'lam jihatidan turli xil zamonaviy harbiy operatsiyalarda sayqallanib, takomilashib barcha turdagi qo'shin turlari ishtirok etayotgan o'ta manyovrchan, harbiy hiylalar bilan boyitilgan jangovar harakatlargacha kelib yetdi.

Harbiy xiyla–ya'ni oddiy fikr, tadbir va harakatdan kuch-quvvat olib, kam miqdordagi kuch va vositalar sarflab, eng asosiysi qurbonlarsiz katta muvaffaqiyatlarga erishish hozirgi zamonaviy jang sa'natining asosini tashkil etayapdi.

Xar bir general, ofitser, kichik komandir va askar o'z darajasida va lavozimida yangidan-yangi payda bo'layotgan harbiy xiyalalar amaliyotini o'zlashtirib borishi va tajribada muvaffaqiyatli qo'llay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim



G'alabaning kaliti bilim !!!

Rossiya Federatsiyasini Checheniston Respublikasida Ichkeriyada ikkita qarama qarshi kurashuvchi tomonlar, yani Rossiya federal qo'shinlari va Checheniston jangarilari orasidagi 1994-1996 yillarda birinchi, 1999-2000 yillarda ikkinchi Chechen majaorosida qo'llangan harbiy xiylalar.

1994-1996 yillarda birinchi Chechen mojarolarida jangarilar Rossiya federal qo'shinlarga katta talofat yetkazishgan. Natijada Rossiya federal qo'shinlar katta kuch va vositalarni yo'qotib Checheniston Respublikasidan o'z qo'shinlarini olib chiqib ketishgan. Checheniston Respublikasi esa o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Federal qo'shinlariga qarshi kurashgan Chechen jangarilarini harakatlarini taxlil qilsak, ularning harakatlarini asosida to'satdan harakatlanish, qattiyatlilik, qo'rslik, ruhiy ta'sir o'tkazish va merganlar jangi kabi harbiy xiylalar qo'lanilgan.



Chechen jangarilari harbiy xiyla ishlatishda, Rossiya Federal kuchlarini shaharda jangovar harakatlarni amalga oshira olmasligidan foydalandilar. Ularning jangovar texnikalari tor ko'chalarda manyovr qila olish imkoniyati cheklanganini bilib, jangovar texnikalar kolonnalarini binolarning deraza va tomlaridan turib, barcha qurollardan foydalangan holda, o'qqa tutib katta talofat yetkazgan. Grozniy shahriga kirgan Federal qo'shinlarning "Shimoliy" guruhlanish 81-motoo'qchi polki va 131-alohida motoo'qchi brigadasi bo'linmalar shaxsiy tarkibi va texnikalariga katta talofat yetkazgan. Ushbu jangda Federal qo'shinlari 131-alohida motoo'qchi brigadasining harbiy xizmatchilaridan 25 ta ofitser, 72 ta serjant, 60 ta askar, hamda bir qanchasi bedarak yoqolgan.



Buyuk sarkardalarimiz Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Boburlar qanday qilib, kam sonli qo'shin bilan harbiy xiylalar ishlatib g'alaba qozonganini unutmasligimiz lozim!!!

Jangarilarining pistirmadagi harbiy xiylalari



Chechen jangarilari Rossiya Federal kuchlarini UKV va KV radio aloqa to'liqida faol buzushlar orqali, bazalashgan markazlari bilan aloqasiz qoldirgan. Chechen jangarilari oldindan niqoblangan va tayyorlangan pozitsiyalardan turib ikki tomondan uyushtirilgan xanjarsimon o't ochish yo'li bilan Rossiya Federal kuchlarini 245- motoo'qchi polkining qo'llab-quvvatlovchi kolonnasini qo'rshovga olgan. Bir yarim soat ichida Chechen jangarilari Rossiya Federal kuchlari texnikalari va shaxsiy tarkibini yakson qilgan. Ushbu operatsiyada Chechen jangarilarining umumiy soni 150 kishidan iborat bo'lgan ikkita otryad va to'rtta jangovar guruhni tashkil etgan. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, jangarilarning hiylasi aloqani yo'q qilib tuzoqqa tushirgan.

1995-YILNING DEKABR VA 1996-YILNING MART OYLARIDA ROSSIYA FEDERAL KUHLARINING 245-166 MOTOO'QCHI POLKLARI BLOK POSTLARINI CHECHEN JANGARILARI TOMONIDAN QO'LGA OLINISHI

Chechen jangarilari harbiy xiyla ishlatib kuzatuvchini chalg'itish uchun hech qanday shubxa tug'dirmasdan bir nechta odamlar bilan blok postlar oldida paydo bo'lishgan. Ular blok postda xizmat olib borayotgan harbiy xizmatchilar bilan muloqotga kirishib, harbiylarga tamaki har xil oziq-ovqat mahsulotlari va spirtli ichimliklar berib, evaziga ulardan yoqilg'i, o'q-dorilar olgan. Chechen jangarilari blok post kattasi, ofitserlar almashuv vaqtida shaxsiy tarkibni sergakligini pasaytirib, tonggacha blok postda yotib soqchilar bilan suhbat olib borgan. Shu vaqt oralig'ida Chechen jangarilari asta-sekin blok post yaqiniga kelib, soqchilarni yechgan va blok postga kirib, shaxsiy tarkibni va jangovar texnikalarni qo'lga olishgan. Shaxsiy tarkibni mashinalarga o'tqizib, soz texnikalarni olib, o'rniga nosoz texnikalarni yakson qilib bedarak yo'nalishga olib ketgan.

Hayotning muallimi- TAJRIBA !!!

GY'OTE



Rossiya Federal Kuchlari tomonidan
1995 yilning yanvar oyida chechen
jangarilariga qarshi ishlatilgan harbiy
xiyla

Rossiya Federal kuchlari harbiy xiyla ishlatishi, 1995 yilning yanvar oyida Grozniyning markazidagi Prezident rezedensiyasida joylashgan Chechen jangarilarining o't ochish nuqtalari bilan kurashish uchun ko'chib yurar tanklardan foydalanganlar. 2 ta tank motoo'qchi bo'linmalari yashiringan holda, qisqa vaqtda panadan chiqib, jangarilarni o't ochish nuqtalarini mo'ljalga olib, o'q uzib tez yana pana joylarga yashiringan. Tanklar shu taktikani ikki kun qo'llagandan so'ng jangarilar ko'p talofat ko'rgan. Jangarilar 18-19 yanvar o'tar kechasi Prezident rezedensiyasini tark etishga majbur bo'lishgan.

**ROSSIYA FEDERAL KUHLARI TOMONIDAN
1995 YIL YANVAR OYIDA CHECHENISTON
RESPUBLIKASINING MARKAZI GROZNIY
SHAHRIDAGI NEFT VA GAZ INSTITUTI BINOSINI
QO'LGA KIRITISH JANGIDAGI HARBIY XIYLASI**

Bu jangovar harakatda Rossiya Federal kuchlari harbiy xiylasi asosida, Chechen jangarilarining o'z kuchlariga ishonchsizlikni hosil qilish, vaxima o'yg'otish va harbiy qo'shin orasida kam yo'qotishlar bilan jangovar vazifani bajarish talabi qo'yilgan. Yig'ma otryad komandiri qarori bilan 8 ta tungi kuzatuv va o't ochish nuqtalari tashkillashtirilgan. Unga ajratilgan shaxsiy tarkib tungi mahsus mergan miltiqlari va tungi ko'rish vositalari bilan qurollangan edi. Yig'ma otryadda binoni ishg'ol qilib qo'lga olish vaqti tun bo'lishiga qaramay, yig'ma otryad komandiri tungi jangda razvedkachilar binolarda adashib pistirma, mina qopqonlarga tushib qolishlari, shaxsiy tarkibiga ko'p talofat yetishini oldindan ko'ra bilgan. Tunning qolgan yarimini jangarilarni mudofaasini va o't ochish tizimini razvedka qilish uchun ajratib binoni ishg'ol qilishni kunduzi o'tkazishga qaror qilgan.

Federal qo'shinlariga qarshi kurashgan Chechen jangarilari xarakatlarining asosini: to'satdan harakatlanish, merganlar jangi kabi harbiy xiylalardan iborat bo'lgan.



Birinchi qo'lga olish guruhi o'zi bilan binoni baland qavatlariga kirishga oldindan tayyorlangan narvonlarga ega bo'lgan. Biroq guruh komandiri katta leytenant Zelenovskiy bino romlari minalashtirilgan bo'lishi mumkunligi sababli, bu variantdan voz kechib binoda yangi paydo bo'lgan teshik orqali kirishga qaror qilgan. Tez orada razvedkachilar bino ichida kirishgan. Birinchi xonada dushman yo'q edi. Guruh komandiri vaziyatni katta komandirga yetkazdi va tank, artilleriya o'tlarini baland qavatlariga ko'chirishdi. Razvedkachilar uchta guruhga bo'linib birinchi qavatni ishg'ol qilishga kirishdi. Ularning harakatlari shiddatli bo'lib, granatalarni uloqtirib va qichqirib vohima bilan ishg'ol qilishga o'tishgan. Tezlik bilan birinchi qavat qo'lga kiritilgan. To'satdan uyushtirilgan hujumdan vohimaga tushgan jangarilar qarshilik ko'rsata olmagan.

ROSSIYA FEDERAL KUHLARI TOMONIDAN ARGUN VA KOMSOMOLSKIY TOMONIDAN GROZNIYGA HARAKATLANAYOTGAN JANGARILARNI TO'XTATISH MAQSADIDA QO'LLANGAN HARBIY XIYLA

Oldindan bo'ladigan harakatlarni jangarilardan yashirish maqsadida, operatsiya boshlangunga qadar, qo'shinlar anchagina yiroqda joylashtirilgan. Rossiya Federal kuchlarining batal'oni Shali shahrida jangovar harakatlarni olib borishga tayyorlanib, atrofda yashovchi xalq orasida bu operatsiya to'g'risida har xil yolg'on ma'lumotlar tarqatgan. Bu yolg'on ma'lumotlar Chechen jangarilariga xalq tomonidan yetarli miqdorda yetkazilgan. Argun va Komsomolskiy tomonidan Grozniyga harakatlanayotgan jangarilarga Rossiya Federal kuchlari batalo'ni qo'qqisidan artilleriya zarbalarini berib, ko'p miqdordagi jangarilarni yakson qilgan.



ROSSIYA FEDERAL KUHLARI TOMONIDAN GROZNIY SHAHRIDA CHECHEN JANGARILARIGA QARSHI “BO‘RI OVI” OPERATSIYASIDAGI QO‘LLANGAN HARBIY XIYLA

Rossiya Federal kuchlari Chechen jangarilarini qo‘rshovdan chiqishini oldindan bilib, harbiy xiyla ishlatgan holda, qo‘rshovni bir qanotidan ataylab jangarilarni chiqishi uchun imkoniyat yaratib bergan. Bundan tashqari Federal kuchlarning bir qo‘mondoni jangarilarning dala komandiri bilan ataylab til biriktirib pul evaziga shu yo‘lakdan chiqishni ta‘minlab berish va‘dasini bergan. Chechen jangarilari qo‘rshovdan chiqish yo‘lagida, Federal kuchlari tomonidan to‘rt qatorli mina maydon va ikki tomondan kuchli otish tizimi tayyorlab quyilgan. Qo‘rshov yo‘lagidan chiqqan Chechen jangarilari avval mina maydonlariga tushgan, undan keyin qalin stvolli va reaktiv artilleriya zarbasiga, keyin esa tanklarni to‘g‘ri yo‘naltirib otish va aviatsiya zarbalariga uchraganlar. Ushbu operatsiyada 1700 tagacha Chechen jangarilari yakson qilingan.

ROSSIYA FEDERAL KUHLARI TOMONIDAN 1995 YIL 8 IYUNDAGI BAMUT AHOLI YASHAYDIGAN PUNKTDA JOYLASHGAN CHECHEN JANGARILARIGA QARSHI ISHLATILGAN HARBIY XIYLA

Rossiya Federal kuchlari Chechen jangarilarini yakson qilish uchun harbiy xiyla ishlatgan. Ularni chalg‘itish, sarosimaga solish va otish pozitsiyalarini aniqlab olish maqsadida, 9 ta PJM-1 va 3 ta PJM-2 jangovar texnikasida kanalni kechib o‘tib, Chechen jangarilari qanotidan qo‘qqisdan zarba bergan. Chechen jangarilari hujum qilingan tomonga kuch va vositalarni jalb qilgan bir paytda, Rossiya Federal kuchlarining 9 ta PJM-1, 3 ta PJM-2 ortga chekingan. Shu payt Rossiya Federal kuchlari artilleriyasi Chechen jangarilarining aniqlangan pozitsiyalariga zarba berib yakson qilgan.

Checheniston mojarosidagi noqonuniy qurollangan tuzilmalarning taktik harakatlari

Checheniston Respublikasidagi mojarolar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, mojaro davomida noqonuniy qurollangan tuzilmalar (NQT) harakatlarining shakl va uslubi bir necha bor o‘zgargan. Jangarilar muntazam qo‘shinlar harakatlari o‘zgarishlariga tezkorlik bilan e‘tibor berib, o‘z harakatlarini bir necha bor o‘zgartirgan. Jangarilar faol qurolli qarama-qarshiliklardan (1994 yil dekabrda 1995 yil iyungacha pozitsion janglarga

etibor bergan) partizanlik harakatlariga o'tgan (1995 yil iyundan 1996 yil iyulgacha), so'ng yana Chechenistondan muntazam qo'shinlarni siqib chiqarish maqsadida keng ko'lamli harakatlar qo'llagan.

Grozniy shahridagi harbiy harakatlar tajribasiga ko'ra, bo'linma va qismlar yaqin jang qurollariga extiyoji borligini ko'rsatdi, eng avvalo qo'l granatalari, granatamyotlar va ognemyotlar, hamda maxsus jihozlar (egiladigan narvon, arqon, ilmoqlar va boshqalar)

Dushman merganlariga va binoni yuqori qavatida joylashgan o't ochish nuqtalariga qarshi kurashda, zenit qurollari va vertalyotlar o'zlarini yaxshi tomonlama ko'rsatishdi.

Dushmanni ko'rish qobiliyatini qiyinlashtirish uchun projektorlarni va har xil pirotexnika uskunalarini qo'llash samarali ekanligini ko'rsatdi. Shahar joylarda eng yaxshi qurol bu RPG-7 hisoblandi.

2000 yildagi Grozniy shahrini qo'lga kiritish maqsadida, olib borilgan muntazam qo'shinlar operatsiyalari 1994-1995 yillarda bo'lib o'tgan kompaniyadagi xatolarni inobatga olib tashkillashtirilgan. O'tgan safardagidek shaharni og'ir texnikalar bilan ishg'ol qilishni o'rniga, muntazam qo'shinlar bilan qo'rshab olish va cheklab qo'yish maqsadida zirxli texnikalardan foydalangan. Bundan so'ng shaharga yuzlab merganlarni razvedka qilish va dushmanni tirik kuchlarini yo'q qilish vazifasi bilan yuborilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki:

Chechenistondagi jangovar harakatlarda g'alabaga erishish maqsadida ikkala tomondan ham ko'p miqdorli harbiy xiylalarni qo'llash misollari keltirib o'tildi. Ayniqsa bu yerda partizan harakatlariga ko'p **diqqat** qaratilgan. Bu davrda tomonlar bir-biridan ayyorroq chiqishga harakat qilishadi, chalg'itish va yashirin harakatlanish usullari va shakllarini izlab topishadi. Kelajak janglarda xatolarga yo'l qo'ymaslik uchun ulardan foydalanishni va tajribani olish lozim. Bu tajriba akademiya va harbiy bilim yurtlarida ta'lim olyotgan bo'lajak komandirlar uchun haqiqiy mulk bo'lib qolishi hamda, jangovar tayyorgarliklar jarayonida qo'llanishi mumkin.

Ushbu qurolli mojarolarda qo'shinlar harakatlarida qo'qqisdan harakatlanib zarba berish, qattiyatlilik, qo'rslik, ruhiy ta'sir o'tkazish va merganlar jangi kabi harbiy xiylalar ishlatilgan.

Ikkala tomonlar ham janglarda g'alaba qozonish maqsadida, jangovar vazifa bajarayotgan hududda fuqarolarni harbiylar bilan muloqatga kirishishi, UKV, KV radio to'lqinida faol buzushlar qo'yish, jangovar harakatlar olib borish haqida qo'shinlar tomonidan fuqarolarga yolg'on habarlar, uydirmalar, mish-mishlar tarqatish kabi harbiy xiylalarni keng qo'llagan.

Hozirgi tahlikali zamonda bo'lib o'tayotgan mahalliy mojarolar, mintaqadagi nobarqaror harbiy, siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilar ekanmiz, dushman ustidan g'alaba qozonish uchun komandirlardan jasorat, mardlik, qat'iyatlilik, jangovar tashabbus, aynan mavjud vaziyatda jangovar harakatlar olib borishda harbiy xiylalardan to'g'ri va mohirona foydalanish taqozo etadi.